

UDK:911.375.3

*Temirov Zokirjon Abdilvoxidovich,  
Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Siddikova Maloxatxon Shokirjon qizi  
Andijon davlat universiteti magistri  
Andijon davlat universiteti, O'zbekiston*

## **ANDIJON VILOYATIDA GO'DAKLAR O'LIMIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA UNI GURUHLASHTIRISH MASALALARI**

*Annotatsiya: Maqolada Andijon viloyatida go'daklar o'limiga ta'sir etuvchi geografik omillar tahlil qilingan va guruhlash masalalari ilmiy o'rganilgan.*

*Tayanch so'zlar: go'daklar o'limi, erta nikoh, urboekologik vaziyat, atmosfera ifloslanishi, tibbiy xizmat ko'rsatish*

*Temirov Zokirjon Abdilvoxidovich,  
Doctor of Philosophy (PhD) in Geographical Sciences, dosent  
Siddikova Malokhatkhon Shokirjon qizi  
Master's Student, Andijan State University  
Andijan State University, Uzbekistan*

## **FACTORS INFLUENCING INFANT MORTALITY IN ANDIJAN REGION AND ISSUES OF THEIR CLASSIFICATION**

*Abstract: This article analyzes the geographical factors influencing infant mortality in Andijan region and scientifically examines the issues of their classification.*

*Keywords: infant mortality, early marriage, urban ecological situation, atmospheric pollution, medical service delivery*

**Kirish:** Ma'lumki, rayonlarga ajratish, ularni tahlil qilish tadqiqot ishining asosiy bo'g'ini sanaladi. Ammo, shunga qaramay, ayrim holatlarda o'rganilayotgan voqea-hodisalar o'zaro o'xshash belgilariga ko'ra yaxlit hududlarni (areallar, rayonlarni) hosil qilmaydi. Bunday holatda hududlarni guruhlarga ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday holat go'daklar o'limini

o'rganish asosida ham ko'zga tashlanadi. Shu sababdan, mazkur tadqiqotda aholi o'limi rayonlari emas, balki guruhlariga deb atash asos sifatida ko'riladi. Go'daklar o'limi va u bilan bog'liq holatlarni rayonlarga ajratish juda mushkul hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili:** O'zbekiston Respublikasi hozirga qadar bir necha marta turli soha va yo'nalishlarga ko'ra rayonlashtirib kelingan. Masalan, professor A.Soliev hududni iqtisodiy mezonlar asosida iqtisodiy rayonlashtirgan (1998 y.). T.Djumaev tadqiqotlarida O'zbekiston tog'li hududlari ekologik va iqtisodiy-geografik rayonlashtirilgan (2004 y.), N.Komilovning ilmiy ishlarida tibbiy-geografik rayonlashtirishga asos solingan (2012 y.), Z.Tojievning tadqiqotlarida esa demogeografik rayonlashtirish amalga oshirilgan (2017 y.). R.B.Qodirovning tadqiqotlarida hududlarda aholi bandligi darajasi, xo'jalik ixtisoslashuvi, urbanizatsiya ko'rsatkichlariga ko'ra geodemografik rayonlarga ajratilgan bo'lsa, Z.A.Temirov sof demografik ko'rsatkichlar tug'ilish, o'lim va tabiiy o'sish mezonlari asosida demografik rayonlarga ajratgan.

Go'daklar o'limini guruhlashtirishga yaqin bo'lgan guruhlashtirish O'zbekistonda aholi o'limi va uning geografik tafovutlarini o'rgangan olim N.J.Muhammedova tomonidan aholi o'limini tanatogeografik rayonlashtirish metodologiyasini ishlab chiqilgan.

Yuqorida ko'rsatilgan rayonlashtirish masalalari respublikamizning barcha jabhalarini va hududlarini o'zida qamrab olgan. Ammo, ushbu tadqiqot ishining ulardan farqli ravishda go'daklar o'limini guruhlashtirish Andijon viloyatida kelajakda qilinishi muqarrar bo'lgan vazifalarni to'g'ri amalga oshirishga xizmat qiladi.

**Tahlil va natijalar:** Go'daklar o'limini guruhlashtirishda hududiy xususiyatlari va unga ta'sir etuvchi tabiiy-ekologik va iqtisodiy-ijtimoiy omillarni o'rganish, baholash va guruhlashtirish muhim ahamiyatga ega. Vaholangki, go'daklar o'limining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishda ma'muriy-hududiy birliklar doirasida go'daklar o'limiga sabab bo'luvchi kasalliklar (perinatal davrda yuzaga keladigan ba'zi holatlar, nafas olish a'zolari kasalliklari, tug'ma nuqsonlar

va hk), urbanizatsiya, sanoatlashish, tibbiy xizmat ko'rsatish asosida guruhlarga bo'lib tadqiq etildi. Andijon viloyatida go'daklar o'limiga ta'sir etuvchi tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, demografik omillari va ekologik vaziyatning hududiy tafovutlari go'daklar o'limiga ta'sir etuvchi omillar nuqtai nazardan guruhlarga ajratishni taqozo etadi.

O'rganilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, go'daklar o'limi respublikaning, shuningdek, Andijon viloyatining turli ma'muriy birliklarida o'ziga xos bo'lib, hatto jins tarkibi va sabablariga ko'ra go'daklar o'limi ko'rsatkichlari ham farq qiladi. Bunday hududiy tafovutlarini o'rganish maqsadida umumiy, go'daklar o'limiga ta'sir etuvchi omillarga ko'ra guruhlarga ajratildi.

Andijon viloyatining go'daklar o'limi bilan bog'liq holatini o'rganish, uni tahlil qilish hamda har bir hududni baholash muhim ahamiyatga ega. Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlariga ko'ra Andijon viloyatining ko'rsatkichidan yuqori bo'lgan tumanlar asosan Andijon va Honobod shaharlari, Izboskan, Ulug'nor va Asaka tumanlarida kuzatildi.

O'rganilayotgan guruhlar bir-biridan keskin farq qilmasada, hududda darajalarni hosil qilgan va shu xususda tahlil qilingan.

**Birinchi guruh tumanlari.** Ushbu guruhga Andijon viloyatining Andijon va Honobod shaharlari, Izboskan, Ulug'nor va Asaka kiradi. Umumiy go'daklar o'limi 18,5 %. Ushbu tuman va shaharlarning tabiiy-ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy holati boshqa hududlardan hamda bir-biridan farq qiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, ushbu guruhda go'daklar o'limi ko'rsatkichi yuqori hisoblanib, ushbu guruhda go'daklar Go'daklar o'limini o'rganish viloyatning kelajakda qaysi tumanida alohida ko'zlangan maqsadlar sari yurishiga sabab bo'ladi. Bu esa, mintaqalarning rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazadi. o'limi vaziyatini chuqur o'rganish va kelajakda salomatlikni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

**Andijon viloyati go'daklar o'limiga ta'sir etuvchi omillarni baholash  
(2023 yil)**

№	Tuman va shaharlar	Go'daklar o'limiga ta'sir etuvchi geografik omillar		
I guruh tumanlar	Andijon sh	Urboekologik vaziyatni yaxshilash	Erta nikoh va erta tug;riqni oldini olish	
	Xonobod sh	Erta nikoh va erta tugriqni oldini olish	Tibbiy xizmat ko'rsatishni yanada yaxshilash	
	Izboskan	Erta nikoh va erta tug'riqni oldini olish	Tibbiy xizmat ko'rsatishni yanada yaxshilash	
	Ulug'nor	Tibbiy xizmat ko'rsatishni yanada yaxshilash		
	Asaka	Urboekologik vaziyatni yaxshilash	Erta nikoh va erta tug;riqni oldini olish	
II guruh tumanlar	Oltinko'l	Tibbiy xizmat ko'rsatishni yanada yaxshilash	Urboekologik vaziyatni yaxshilash	Erta nikoh va erta tug;riqni oldini olish
	Andijon	Tibbiy xizmat ko'rsatishni yanada yaxshilash	Erta nikoh va erta tug'riqni oldini olish	Urboekologik vaziyatni yaxshilash
	Baliqchi	Tibbiy xizmat ko'rsatishni yanada yaxshilash		
	Bo'ston	Tibbiy xizmat ko'rsatishni yanada yaxshilash	Atmosfera ifloslanishini oldini olish	
III guruh tumanlar	Buloqboshi	Tibbiy xizmat ko'rsatishni yanada yaxshilash		
	Jalaquduq	Atmosfera ifloslanishini oldini olish		
	Qo'rg'on tepa	Tibbiy xizmat ko'rsatishni yanada yaxshilash	Atmosfera ifloslanishini oldini olish	Erta nikoh va erta tug;riqni oldini olish
	Marhamat	Erta nikoh va erta tug'riqni oldini olish		
	Shahrixon	Tibbiy xizmat ko'rsatishni yanada yaxshilash	Erta nikoh va erta tug;riqni oldini olish	
	Paxtaobod	Tibbiy xizmat ko'rsatishni yanada yaxshilash		
	Xo'jaobod	Atmosfera ifloslanishini oldini olish	Tibbiy xizmat ko'rsatishni yanada yaxshilash	


**Ikkinchi guruh.** Ushbu guruhga viloyatning Oltinko'l, Andijon, Baliqchi va Bo'ston tumanlari kiradi. Mazkur tumanlarda bir yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi birinchi guruhga nisbatan biroz past bo'lib, o'rtacha 13,5 % ga teng. Ushbu guruh tumanlari viloyatning markaziy va g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, tasmasimon tuzilishga ega. Ushbu tumanlar o'zining geografik o'rni, qadimiy aholi manzillari va aholining zichligi bilan ajralib tursada, go'daklar o'limida turli omillar nisbatan ko'p uchrashi bilan ajralib turadi. Mazkur guruhda birinchi navbatda onalik va bolalikni muhofaza qilish va ularni sog'lig'ini saqlash borasidagi ishlarni yanada rivojlantirish zarur bo'lsa, Oltinko'l tumanida urboekologik vaziyatni yaxshilash, ANDijon tumanida erta nikoh va erta tug'riqni oldini olish hamda Bo'ston tumanida atmosfera ifloslanishini oldini olish bo'yicha ishlarni yanada rivojlantirishni taqazo etadi. Shuningdek guruhni salomatlik holatini yaxshilash, onalar va go'daklar o'limini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taqazo etadi.

**Uchinchi guruh.** Ushbu guruhning tarkibiga Buloqboshi, Jalaquduq, Qo'g'ontepa, Marxamat, Shahrixon, Paxtaobod, Xo'jaobod tumanlari kiradi. Uchinchi guruh o'zining joylashgan o'rni, milliy urf-odat va an'analari bilan ham farqlansa, mustaqillik davrida go'daklar o'limining ko'rsatkichlarning nisbatan pastligi ham kuzatiladi (8,7 %). Ushbu guruh viloyatda nisbatan go'daklar o'limi vaziyati yaxshiligi, tabiiy muhitning saqlanganligi bilan ajralib turadi. Mazkur tumanlarda tibbiy maskanlarning shakllanib borishi qadimdan mavjud bo'lsada, aholi salomatligiga urbanizatsiya darajasi, toza ichimlik suvi va ekologik holati o'z ta'sirini o'tkazadi. Xo'jaobod tumaida viloyatlarida go'daklar o'limi nisbatan yuqori bo'lib, ushbu tumanda atmosfera havosini yaxshilash holatiga alohida e'tibor berishni taqazo qiladi.

Shuningdek go'daklar o'limi va u bilan bog'liq holatlarni faqatgina tumanlar kesimida o'rganish va tahlil qilish uni keraklicha omillarini ochib berolmaydi. Hududda bir yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi holatini chuqur o'rganish

tumanlardan keying qishloq fuqarolar yig'ini kesimida va geografik zonalarda yanada chuqurroq sabablarini aniqlashga olib keladi.

Shunday qilib, Andijon viloyatini go'daklar o'limini guruhlashtirish orqali mavjud vaziyat o'rganilib, go'daklar o'limiga ta'sir ko'rsatuvchi geografik omillar yordamida tumanlar guruhlashtirildi. Bu boradagi tadqiqotlar viloyat hududida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarni tog'ri tashkil etishga xizmat qiladi.



## 1-расм. Andijon viloyatidagi go'daklar o'limiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

Ushbu infografikada Andijon viloyatida go'daklar o'limiga ta'sir etuvchi geografik, ekologik va ijtimoiy-demografik o'lchov tumanlar kesimida tahlil qilingan. Hududlar uchta risk guruhiga ajratilib, yuqori, o'tgan darajalari hamda jadvaliga ko'ra ko'rsatkichlar. Tahlil hududga ko'ra, Andjon shahri, Xonobod,

*Izboskan, Ulug‘nor va Asaka tumanlarida go‘daklar o‘limiga erta nikoh va erta tug‘ruq, tibbiy xizmat sifati hamda urboekologik muammolar kuchli ta‘sir ko‘rsatadi. O‘rta va past risklanishida esa atmosfera iflos, sanitariya holati va profilaktik tibbiy yordam muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Inf adada asosida bo‘yicha barqaror chora-tadbirlar ham aks ettirilib, onalar va bolalar ishlab chiqarishni yaxshilash, ekologik muhitni sog‘lomlashtirish hamda tibbiy xizmatni nazorat qilish orqali go‘daklar o‘limini mumkinligi asoslab berilgan.*

**Xulosa:** Ushbu tadqiqot tadqiqotlari Andijon viloyatida go‘yoki o‘limiga asoslangan hududiy turli xil jarayonlarni hamda unga ta‘sir etuvchi murakkab geografik, ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan ko‘rsatkichlar. tadqiqot tashkiloti viloyat tumanlari go‘daklariga ta‘sir etuvchi tomonidan xosdem hududiga ajratildi va har qanday tibbiy-geografik xususiyatlar aniqlandi. Natijalarga ko‘ra, urbanizatsiya darajasi yuqori bo‘lgan ekologik muammolar, atmosfera havosining ifloslanishi, sanoatlashuv va aholining zich joylashuvi go‘daklarga zararli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, ayrim qishloqlarda erta tug‘ruq orqali nikohni va qo‘llab-quvvatlayotgani ham go‘daklar o‘limiga ko‘rsatayotganlariga bevosita ta‘sir eti kuzatildi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Andijon va Xonobod shaharlari, Izboskan, Ulug‘nor hamda Asaka tumanlarida go‘daklar o‘limiga ko‘ra yuqori darajada bo‘lib, bu boradagi tibbiy xizmat sifatini yaxshilash, ekologik vaziyatni sog‘lomlashtirish hamda onalar reproduktiv imkoniyatlarini samarali vazifalarni hal qiladi. Ikkinchi guruhda esa onalik va bolalikni qo‘llab-quvvatlashni yaxshilash, profilaktik tibbiy yordamni davolashni yaxshilashni ta‘minlash zarurligi aniqlandi. Uchinchi guruhda go‘daklar o‘limiga ko‘ra, o‘tgan bo‘lsada atmosfera havosi sifati, xavfsizlik suvi ta‘minoti va tibbiy yordam sifatini doimiy nazorat qilish talab qilsin.

Faqatgina umumiy statistik ko‘rsatkichlar asosida emas, balki xavfsiz-geografik, ekologik va ijtimoiy-demografik olingan olingan o‘rganish muhimligini ko‘rsatmoqda. Chunki har bir hududning tabiiy muhiti, aholi zichligi, urbanizatsiya

darajasi va turmush tarzi go'daklar ko'rinishiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Shu tufayli mumkin bo'lgan miqdorda miqdorini tumanlardan tashqari mahalla va qishloq yig'ilariida ham olib borilishi mumkin bo'ladi.

Umuman olganda, o'lim-to'siqlar yordamida geografik ko'rinishdagi dasturiy ta'minot tizimida yordam beradi. onalar va bolalarni yaxshilash va aholi turmush sifatini nazoratga xizmat ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Джумаев Т. Устойчивое развитие горной зоны Узбекистана (социально-экономические аспекты). Автореф. дисс. докт. геогр. наук. -Т., 2004. -49 с.
2. Комилова Н.Қ., Солиев А.С. Тиббиёт географияси. -Т.: Истиқлол, 2005. - 162с.
3. Temirov Z.A. O'zbekistonning Farg'ona mintaqasida demografik jarayonlar rivojlanishining hududiy xususiyatlari. Monografiya. – Andijon: Hayot nashri, 2022. – 158.
4. Комилова Н.Қ. Тиббиёт географиясининг назарий ва амалий масалалари. - Тошкент, “SHARQ”, 2016. 277 б.
5. Bahadirovich, R. B. (2023). Experience of Foreign Countries in the Prevention of Divorces. Central Asian Journal of Social Sciences and History, 4(3), 80-86.
6. Rabiev, B. B. (2026). Children's health in migrant families: Gender and care dynamics. Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 7(2), 184–189. <https://doi.org/10.51699/cajmns.v7i2.3136>
7. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari. – Toshkent, 2023.
8. Komilova N.Q. Tibbiyot geografiyasining nazariy va amaliy masalalari. – Toshkent: Sharq, 2016. – 277 b.
9. Muhammedova N.J. O'zbekistonda aholi o'limining geografik tafovutlari. Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019. – 20 b.
10. Soliev A.S., Axmedov E.A. va boshqalar. Mintaqaviy iqtisodiyot. – Toshkent: Universitet, 2003. – 304 b.
11. Tojjeva Z.N. O'zbekiston Respublikasida demografik jarayonlar va ularning hududiy xususiyatlari. Geografiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2017. – 16 b.
12. Abdurahmonov Q.X. Demografiya. – Toshkent: Noshir, 2013. – 296 b.
13. World Health Organization (WHO). Infant and Child Mortality Report. – Geneva, 2023.

14. UNICEF. Levels and Trends in Child Mortality. – New York, 2023.
15. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. – Toshkent, 2023.
16. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi hisobot materiallari. – Toshkent, 2023.
17. United Nations Population Fund (UNFPA). Maternal and Child Health Indicators in Central Asia. – New York, 2022.